

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA EKOLOGIK TARBIYANI
AMALGA OSHIRISHDA PEDAGOGIK YONDOSHUV

*Usmonova Maftuna Zayniddinovna -Toshkent shahar, Sergeli tumani
68-maktabda geografiya va tabiiy fan o'qituvchi*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ekologik tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari tahlil qilinagan. Ekologik tarbiyani amalga oshirishda qo'llaniladigan pedagogik yondoshuvlar, innovatsion o'qitish metodlari, ekologik tadbirlar va amaliy faoliyatlari orqali ekologik bilimlarni o'rgatish jarayonini o'rganilgan. Shuningdek, maktablarda ekologik faoliyatni kengaytirish, o'quvchilarni ekologik ongni shakllantirishda ekologik tarbiya sohasidagi yangi pedagogik yondoshuvlar va metodlarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik tarbiya, pedagogik yondoshuvlar, ekologik bilimlar, ekologik muammolar, ekologik faoliyatlar, ekologik ong, maktabda ekologik tadbirlar.

Аннотация: В данной научной статье проанализированы технологии развития экологического воспитания в общеобразовательных школах. Изучен процесс обучения экологическим знаниям посредством педагогических подходов, инновационных методов обучения, экологической деятельности и практической деятельности, применяемых при осуществлении экологического воспитания. Также даны предложения и рекомендации по расширению экологической деятельности в школах, применению новых педагогических подходов и методов в области экологического воспитания в формировании экологического сознания учащихся.

Ключевые слова: Экологическое воспитание, педагогические подходы, экологические знания, экологические проблемы, экологическая деятельность, экологическое сознание, экологическая деятельность в школе.

Abstract: This scientific article analyzes technologies for the development of environmental education in general secondary schools. The process of teaching environmental knowledge through pedagogical approaches used in the implementation of environmental education, innovative teaching methods, environmental activities and practical activities has been studied. Proposals and recommendations have also been made to expand environmental activities in schools, to apply new pedagogical approaches and methods in the field of environmental education in the formation of environmental awareness of students.

Keywords: Environmental education, pedagogical approaches, environmental knowledge, environmental problems, environmental activities, environmental awareness, environmental activities in schools.

Kirish. Hozirgi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi bilimlar yosh avlodni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ekologik tarbiya o'quvchilarni atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga, ularni ekologik muammolarni hal qilishga tayyorlashga qaratilgan.

Bugungi kunda dunyoda atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, ekogumanitar ta'lim paradigmasini tabiatga bo'lgan antropogen ta'sirlarning oldini olish negizida yoshlarda ekologik mas'uliyat hissini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etib, toza texnologiyalarni tabiatni muhofaza etish tadbirlariga joriy qilish implementatsiyasi bilan baholanmoqda. XXI asrning dolzarb muammosi ekologiya va iqlim o'zgarishini o'rganish borasida dunyoning barcha davlatlarida BMT bosh assemblyasining "Barqaror rivojlanish" sammitida qabul qilingan rezolyutsiyasiga muvofiq 2030-yilgacha bo'lgan davrda global barqaror muhitni rivojlantirish ko'lamini tobora kengaytirib borish bo'yicha qator chora tadbirlar olib borilmoqda.

Asosiy qism. Umumta'lim maktablarida ekologik tarbiyani rivojlantirish hozirgi kunda juda dolzarb masala hisoblanadi. Sababi har bir o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi, ekologik tarbiyasi va ekologik madaniyati tabiat va inson munosabatlarida, o'zi yashab turgan joy tabiatini asrab avaylash va tabiiy resurslardan ratsional foydalanishida ifodalanadi. Yon atrofimizda sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlardan talafot ko'rishning takrorlanib turishi, yong'inlar, tabiiy ofatlardan, iqlimning keskin isishi va sovib ketishidan zarar ko'rishlar, shamol, suv kabi tabiiy ofatlardan zarar ko'rish kabi muammolarning ohirgi vaqtlarda tez-tez qulog'imizga chalinishi, bu atrof muhitdan bizga kelayotgan ogohlantirishdir.

Tabiiy muhitni o'rganish, inson – tabiat munosabatlarini keskinlashuviga yo'l qo'ymaslikka erishish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buni kundalik odatlarga aylantirish, yosh avlod tarbiyasida mana shu mexanizmni shakllantirish hozirgi davr talabi.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. So'nggi tadqiqotlarga ko'ra hozirgi kunda ota-onalar farzandiga kam vaqt ajratishi, texnika va texnologiya rivojlanishi bilan turli xil mobil vositalar va gadjetlardan bolalar orasida foydalanish holatining yuqoriligi, ularning ham foydali, ham zararli tomonlarini inobatga olish lozimligini hisobga olsak, ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda dasturiy ta'minot vositalarining o'rni va ulardan to'g'ri foydalanish mexanizmlarini yaratish hozirgi kunda dolzarb masalalaridan biriga aylanib ulgurgan.

Ekologik tarbiya tashqi muhit va vujud orasidagi uzviy bog'liqlik mavjudligini his ettirish, tabiiy va ijtimoiy muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini hosil qildirishda namoyon bo'ladi. Maktab o'quvchilarida ekologik tarbiya ko'nikmalarini rivojlantirishda ularga to'g'ri tarbiya berish, ekologik tushuncha va atamalarni o'rgatish, tabiatni muhofaza qilishni odatga aylantirish, hayot faoliyatlari davomida tabiatga nisbatan adekvat munosabatda bo'lish va bo'layotgan voqea-

hodisalarni to'g'ri talqin qilishga o'rgatish hozirgi kunda pedagogik soxa vakillari oldida turgan asosiy masalalardan biridir.

Ekologik tarbiya o'quvchilarda atrof-muhitni tushunish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi. Buning uchun pedagogik yondoshuvlar muhim rol o'ynaydi. Pedagogik yondoshuvlarning to'g'ri tanlanishi ekologik tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Quyidagi pedagogik yondoshuvlar ekologik tarbiya jarayonini samarali amalga oshirishda yordam beradi:

Gumanistik yondoshuv - o'quvchilarni faqat bilimlar bilan emas, balki inson sifatida rivojlantirishga ham e'tibor qaratadi. Bu yondoshuvda ekologik tarbiya o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, hissiy va axloqiy qadriyatlari asosida shakllantiriladi. Ularning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini o'zgartirishda asosiy e'tibor individual va guruhviy muhokamalarga, ekologik masalalar yuzasidan fikr almashish va ijtimoiy faoliyatga qaratiladi.

Faol yondoshuv (aktiv o'qitish metodlari) - ekologik tarbiyani o'quvchilarni faollikka undashga asoslangan. Bu yondoshuvda o'quvchilar o'rganayotgan materialga faol ishtirok etadilar, muammolarni hal qilishda mustaqil fikrlashga harakat qiladilar. Masalan, ekologik loyihalar, tabiatga chiqishlar, amaliy tadbirlar (masalan, toza hududlar yaratish, daraxt ekish kabi) orqali o'quvchilar ekologik masalalarni amalda hal qilishadi. Faol yondoshuv o'quvchilarni ekotizimga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Integratsiyalashgan yondoshuv - ekologik tarbiyaga boshqa fanlar bilan hamkorlikda yondashishni anglatadi. Ekologiya fanining o'quv dasturi boshqa fanni o'rganish bilan birlashtiriladi (masalan, biologiya, kimyo, geografiya, iqtisodiyot, huquqshunoslik). Bunday yondoshuv ekologik muammolarni ko'proq anglashni ta'minlaydi, shuningdek, o'quvchilarda tabiat va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. Shu tarzda, ekologik muammolarni o'rgatish boshqa fanlar bilan birgalikda ko'rib chiqiladi.

Tajriba-yordamli yondoshuv - o'quvchilar ko'proq amaliy tajriba orqali o'rganadilar. Ekologik tarbiyani samarali amalga oshirish uchun o'quvchilarga tabiat bilan bevosita aloqada bo'lish imkoniyati beriladi. Masalan, ekoturizm, bog'dorchilik, tabiatni kuzatish, ekologik eksperimentlar va ilmiy tadqiqotlar orqali o'quvchilar ekologik ma'lumotlarni amaliyotda qo'llashadi.

Problemali o'qitish yondoshuvi - o'quvchilarni tabiat va ekologiya masalalarida fikr yuritishga undaydi. O'qituvchi ekologik muammo yoki vaziyatni taqdim etadi, va o'quvchilar bu masalani hal qilish uchun guruhlar yoki individual ravishda izlanish olib boradilar. Masalan, "Qanday qilib plastik chiqindilardan foydalanishni kamaytirish mumkin?" yoki "Shaharlar ekologik toza qilish uchun nimalarni

o'zgartirishi kerak?" kabi savollar orqali o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirish mumkin.

Darsdan tashqari faoliyatlar orqali pedagogik yondoshuv - maktablarda ekologik to'garaklar, klub va musobaqalar tashkil etish ekologik masalalarni o'quvchilarga yanada qiziqarli va samarasiz tarzda yetkazadi. Tabiatni o'rganish, ekologik kunlar, chiqindilarni to'g'ri joylashtirish bo'yicha aksiyalar kabi tadbirlar o'quvchilarni o'qishdan tashqari faoliyatda ham ishtirok etishga undaydi.

Kreativ pedagogik metodlar - ekologik tarbiya samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilar yangi kreativ va innovatsion metodlardan foydalanishlari kerak. Masalan, ekologik masalalarni video, multimediya materiallari, vizual metodlar (diagrammalar, kartalar) yordamida tushuntirish. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan (masalan, virtual ekskursiyalar, onlayn tadqiqotlar, ekologik dasturlar) foydalanish o'quvchilarga ekologik ma'lumotlarni yanada qiziqarli va tushunarli tarzda taqdim etadi.

Refleksiv yondoshuv - o'quvchilar ekologik mavzularda fikrlar almashib, o'z tajribalari, amaliyotlari va o'rganilgan bilimlarni baholashlari kerak. Bu yondoshuv o'quvchilarda mas'uliyatni shakllantiradi va ularni o'zgarishlar qilishga tayyorlaydi. Ekologik tarbiya faqatgina pedagogik jarayonda emas, balki har bir bola yashab turgan muhitda, oilada, mahalladagi jarayonlar, joydagi insonlarning bir-biri bilan shuningdek, jonli va jonsiz tabiat bilan bo'lgan munosabatlarida ham aks etadi. Tarbiya mexanizmlarini takomillashtirishda tushuntirish, kuzatish, hikoya, namuna ko'rsatish, suhbat, munozara metodlari samarali hisoblanadi.

Ekologik tarbiyani amalga oshirishda pedagogik yondoshuvlar, asosan, o'quvchilarni ekologik muammolarga nisbatan mas'uliyatli, ijtimoiy faollikka ega bo'lgan shaxslar sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Ular ekologik bilimlarni amaliyotda qo'llash, atrof-muhitni saqlashga qaratilgan texnologiyalarni o'rganish va tabiatni sevishga yo'naltirilgan faoliyatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Pedagogik yondoshuvlar ekologik tarbiyaning samarali bo'lishini ta'minlaydi va o'quvchilarni kelajakda ekologik mas'uliyatni tushunadigan avlod sifatida tarbiyalaydi.

O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish. Bu, eng avvalo, oiladan boshlanmog'i lozim. O'quvchilardagi ekologik tarbiyani shakllantirishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berilmog'i lozim:

- tabiatni ifloslantirish kishilarga kasalliklarini olib keluvchi manbaa bo'lishligiga;
- inson va tabiat munosabatlaridagi uyg'unlikka, atrof-muhitni muhofaza qilishning mazmun mohiyatini bilishlikka;

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-9

- raqamli texnologiyalardan foydalanish hayotiy extiyojga aylangani va ulardan to'g'ri maqsadlarda foydalanish haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga;
- dasturiy ta'minot vositalaridan ta'lim-tarbiya maqsadida foydalanishga keng ahamiyat qaratish orqali ekologik tarbiyalanganlik darajasini oshirishga;
- o'quvchilar ongida ekologik tasavvurlarni shakllantirish. Jamiyat va tabiat munosabatlari, ta'sirini anglashga; (dasturiy ta'minot mazmuni sabab-oqibat omillarini tahlil qilishda yordam beradi)
- daraxtlar, o'simliklar olamiga va hayvonlarga nisbatan murosasizlik bilan munosabatda bo'lish oqibatlarini o'rgatish, ekologik monitoring – kuzatish olib borish orqali ekologik ilmiy-tadqiqotchilikka undash. (dasturiy ta'minot orqali xabardorlikni oshirish, ma'lumotlarni olish, baham ko'rish va h.k)
- zavod va fabrikalardan chiqayotgan zararli chiqindilarning insoniyat rivojlanishiga ta'sirini va uning oqibatlarini o'quvchilar ongiga singdirishning axborot-komunikativ texnologiyalarini yaratishga erishish;
- barcha fanlarni o'qitishda ekologik tarbiyani olib borish: (ekologik tarbiya mazmunini oshirish)
- sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda va ekskursiya hamda eko sayohatlarda ekologik tarbiyani olib borish:(individual ta'lim muhitini yaratish)
- fanlarni o'qitishda o'quvchilarga ekologik muammolarni o'rgatish orqali ularda tabiatni muhofaza qilish, uning boylıklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Xulosa. Ekologik tarbiyani rivojlantirish texnologiyasini yanada samarali qilish uchun maktablarda ekologik to'garaklar, ma'rifatli tadbirlar, ekologik kunlar va boshqa faoliyatlarni tashkil etish, o'quvchilarni ekologik masalalarda ishtirok etishga, mas'uliyatli munosabatda bo'lishga undash zarur. Shuningdek, ekologik yondoshuvni jamiyat darajasida keng targ'ib qilish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov, Sh. A. Ekologik ta'lim asoslari. – T.: O'qituvchi nashriyoti, 2019. 156 bet.
2. Mirzaahmedov, M. T. Barqaror rivojlanish nazariyalari. – T.: Fan va Texnologiya, 2021. 200 bet.
3. Hasanov, O. E. Maktabda ekologik ta'lim va tarbiya. – T.: Universitet nashriyoti, 2020. 178 bet.
4. Nematov, A. S. Chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari. – T.: Akademnashr, 2018. 143 bet.
5. Yusupov, N. K. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish. – T.: Iqtisodiyot, 2019. 225 bet.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-9

6. Qodirova, G. R. Maktab yoshidagi bolalarning ekologik ongini rivojlantirish. – T.: Fan, 2021. 172 bet.
7. To‘xtayev, Sh. S. Ekologik madaniyat va yosh avlod. – T.: Ma’naviyat, 2020. 160 bet.
8. Shodmonov, B. X. Innovatsion pedagogika va ekologik ta’lim. – Toshkent: Texnika, 2019. 150 bet.

